



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA SPORT O'YINLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

To'xtanazarov Qahramon Abduvahobovich

*Qo'qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya: So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida sport o'yinlariga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. An'anaviy uslublardan chiqib, zamonaviy, samarali va eng asosiysi, innovatsion usullardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj oshdi. Mazkur o'zgarishlarning asosiy maqsadi – talaba yoshlar salomatligini yaxshilash, jamoaviylikni rivojlantirish, o'zaro hurmat va do'stlik rishtalarini mustahkamlashdan iborat.

Kalit so'zlar: sport o'yinlari, talaba, sog'lom turmush tarzi, sport strategiyasi. zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar.

KIRISH

Dastavval, sport o'yinlarining mazmun-mohiyatini teran tushungan holda, yangi trening tizimlari, internet texnologiyalardan faol foydalangan holda, masalan, online platformalar, masofaviy mashg'ulotlar, virtual sport musobaqalari va mobil ilovalardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu esa, bir tomondan pandemiya kabi murakkab sharoitlarda ham sport faolligi pasayib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Har bir oliy ta'lim muassasasida sport inshootlari va infratuzilmasi ahamiyatli o'rin tutadi. Zamonaviy sport komplekslari, stadionlar, ochiq va yopiq zallarning mavjudligi, talabalar uchun maksimal qulay sharoitlarni yaratadi. Ana shunday sharoitlarni yaratish orqali, talabalarning to'liq salohiyatini ochish, sport o'yinlariga keng jalb etish va ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash imkoni tug'iladi.

Oliy ta'lim muassasalarida sport o'yinlarini tashkil etishda metodik xizmatlar tashkil etish muhimdir. Maxsus malakali murabbiylar, sport o'qituvchilari faoliyati natijasida har bir talaba sportga bo'lgan salohiyatini namoyon qila oladi. Yangi



metodikalardan foydalanish, ya'ni har bir guruh, kurs, va fakultetda talabalarining ham ijtimoiy, ham jismoniy xususiyatlarini hisobga olib qurilgan dasturlar asosida mashg'ulotlar olib borilishi ham zamonaviy yondashuvlardan biridir. So'nggi yillarda individual yondashuvlar ham keng qo'llanilmoqda. Ya'ni, har bir talabaning salohiyati, qiziqishi, uning tayyorgarlik darajasi va motivatsiyasiga mos sport o'yinlari va mashg'ulotlari tanlab olinadi. Bu esa, o'z navbatida, sport o'yinini yanada qiziqarli hamda foydali tarzda tashkil etish imkonini bergan holda, natijadorlikni oshiradi. OTMlarda sport o'yinlarni tashkil etish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni juda muhim. Elektron jurnallar, maxsus web-saytlar, mobil ilovalar, onlayn natija va reyting tizimlari orqali musobaqalarning ochiqlik, shaffoflik va tezkor monitoringini ta'minlash mumkin. Bunday usullar, talaba va o'qituvchilar o'rtasida sportga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Oliy ta'lim muassasalarida sport o'yinlarni rivojlantirishda sog'lom muhit va hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tashkil etilgan sport klublari, do'stlik musobaqalari, universitetlararo va respublika miqyosidagi o'yinlar nafaqat sog'lom raqobat balki, yoshlarning o'zaro do'stlik va fikr almashuvi uchun ham imkoniyat yaratadi.

Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini tashkil etish ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv va ilg'or tajribalardan keng foydalaniladi. Xususan, o'yin-scenariylarini yaratish, kreativ mashg'ulotlar tuzish, baholash va monitoring tizimlarini takomillashtirish zamonaviy OTMlarning bosh maqsadlaridan biri sanaladi. Bu yondashuv doirasida talabalar faolligi yuqoriligi, sportni ommalashtirish va keng auditoriyani qamrab olishga alohida e'tibor qaratiladi [2].

Sport o'yinlari orqali talabalar o'rtasida bir-birini hurmat qilish, yordam berish, jamoaviy harakat qilish va mashaqqatlarni yengib o'tishga o'rganadilar. Bu esa, pedagogik jarayonda shaxs sifatida shakllanishga, mustaqil fikrlash va mustahkam iroda hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarida sport o'yinlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, endilikda har bir OTMda sport sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda davlat siyosati,



ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglarning faol ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir davlat dasturlarining amaldagi natijalari, yangi loyihalar va investitsiyalarning jalb etilishi orqali talaba yoshlar tom ma'noda sog'lom hamda har tomonlama rivojlangan bo'lib yetishmoqda. Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, OTMlarda sport o'yinlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar bir qancha ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Sport sohasiga bo'lgan zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish orqali, talabalarning faolligi, salomatligi, tahsil olishga bo'lgan qiziqishi, jamoaviylik va liderlik imkoniyatlari sezilarli darajada oshmoqda. Bu yondashuvlar asosida har bir talaba o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, zamonaviy jamiyatda sog'lom hayot tarziga amal qilishga o'rganadi. Oliy ta'lim muassasalarida sport tadbirlarining rivojlanishi mustahkam infratuzilmaga tayanadi. Zamonaviy sport infratuzilmasining poydevori nafaqat sport bilan shug'ullanish uchun qulay sharoit yaratadi, balki yosh avlodning sog'lom turmush tarzi, jismoniy va ma'naviy yetukligi, ularning zamonga mos hayotiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bugungi globallashuv, raqobat kuchayib borayotgan davrda zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan birga moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lgan sport infratuzilmasiga ega bo'lish oliy ta'lim muassasalari uchun dolzarb vazifalardan biridir. Oliy ta'lim markazida sportga bo'lgan e'tibor, eng avvalo, komil va barkamol avlod tarbiyasining ajralmas qismi bo'lib qoladi [3]. Sport infratuzilmasi tushunchasi keng ma'noli bo'lib, u sport inshootlari, jihozlar, texnologik uskunalar, boshqaruv va monitoring tizimlari, transport-logistika imkoniyatlari, texnik va texnologik qo'llab-quvvatlash, tibbiy va gigiyenik xizmat ko'rsatish tizimlari, shuningdek, ma'rifiy va metodik infratuzilmani o'z ichiga oladi. Har bir qismning o'рни va ahamiyati sport tadbirlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun muhim bo'lib, bular bir butun tizim holida ishlashi lozim. OTM hududida joylashgan sport inshootlari sport tadbirlarini samarali tashkil etish va rivojlantirishning asosiy asosi hisoblanadi. Sport inshootlari nafqat klassik sport turlari uchun, balki zamonaviy sport yo'nalishlari va fitnes madaniyatini ommalashtirish uchun ham keng imkoniyatlarni yaratishi kerak.



Shuning uchun OTM hududida ochiq va yopiq sport zallari, stadionlar, suzish havzalari, mini-maydonlar, tennis maydonlari, trenajyor zallari, ko'p profilli sport arenalari va yugurish yo'laklari, yuqori sifatli sun'iy yoki tabiiy qoplamali sport maydonlari faoliyat yuritishi zarur. Sport inshootlarining mavjudligi va ularning zamonaviy talablar asosida qurilishi OTMlarda sport harakatini kengaytirish, ommaviylikka erishish va sportchilarning salomatligi hamda xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga sog'inadi. Ularning xizmat ko'rsatishining yuqori darajada bo'lishi ham o'z-o'zidan emas, balki mavjud infratuzilmaning mustahkamligi, qulay va eng ilg'or texnologiyalarga asoslanganligi tufayli yuzaga keladi [4].

Sport inshootlarini zamonaviy va sifatli sport anjomlari va asbob-uskunalar bilan to'laqonli jihozlash sport tadbirlarining yuqori saviyada o'tkazilishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Butun dunyodagi zamonaviy sport rivoji doimiy takomillashtirilayotgan sport jihozlari, texnologik ilg'orliklar bilan ham kechadi. OTM infratuzilmasida sport anjomlari yetarli, sifatli, zamon talablari va xavfsizlik standartlariga mos bo'lishi zarur. Futbol, voleybol, basketbol, tennis, badminton, stol tennisi, suzish, atletika, og'ir atletika, boks, yunon-rum kurashi, taekwondo, jiusingari ko'plab sport turlari uchun maxsus sport anjomlari va inventarlar, yengil va og'ir atletika uchun maxsus uskunalar va qurilmalar, fitnes yo'nalishlari uchun trenajyorlar va jihozlar, diagnostika va monitoring uchun zamonaviy texnikalar mavjud bo'lishi kerak.

Zamonaviy sport infratuzilmasining muhim elementlaridan yana biri – boshqaruv va monitoring texnologiyalarining joriy etilishidir. Hozirgi kunda sport tadbirlarini samarali tashkil etish, natijalarni tez va aniq hisobga olish, real vaqtda axborot almashinish imkoniyatlarini ta'minlovchi elektron platformalar va dasturiy mahsulotlardan foydalanish keng ommalashmoqda. OTM infratuzilmasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida sport musobaqalariga yozilish, sportchilarning harakatini monitoring qilish, natijalarni boshqarish, ishtirokchilar reytingini shakllantirish, sport zallari va maydonlaridan foydalanishni nazorat qilish,



musobaqa jarayonlarini onlayn namoyish qilish kabi imkoniyatlarning yo'lga qo'yilishi infratuzilmaning zamon talablariga javob berayotganidan dalolat beradi. Bu oxir-oqibat talabalarning sport faoliyatidagi ishtirokini oshirish, natijadorlikni monitoring qilish va yirik sport tadbirlarini oliy saviyada o'tkazish uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi [5].

Sog'lom raqobat muhitini yaratish va eng yaxshi sportchi hamda jamoalarni aniqlash uchun zamonaviy texnik mutlaqo muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring va tahlil natijalari orqali hay'at a'zolari, hakamlar hay'ati faqat sportchilar emas, balki butun tadbir jarayonini, unga tayyorgarlik bosqichidan tortib, yakuniy natijalargacha bo'lgan jarayonni samarali va shaffof nazorat qilishi mumkin. Texnik rivojlanish darajasi tufayli sportning har bir bosqichini tahlil qilish va natijalarni ochiq e'lon qilish imkoniyati jadallik bilan oshib bormoqda. Sport tadbirlarida qatnashuvchi ishtirokchilarning xavfsizligi, sog'lig'i va daromadli sport faoliyatini yuritishi uchun ham mo'ljallangan tibbiy infratuzilma muhim hisoblanadi. Sport tibbiyoti xizmati sifatida tashkil etilgan zamonaviy tibbiyot maslahati markazlari, tezkor tibbiy yordam ko'rsatish xonalari, zarur anjom va vositalar bilan jihozlangan birinchi yordam xonalari hamda malakali mutaxassislar infratuzilmaning ajralmas qismi hisoblanadi. Sport tadbirlari davomida qatnashchilarning jismoniy holatini tasdiqlash, shikastlanishlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda tez yordam ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lishi shart. Bu orqali ishtirokchilarning o'zini yaxshi his qilishi va sport jarayonlariga chin yurakdan sho'ng'ishi ta'minlanadi. Shaxsan talabalar va sportchilar uchun xavfsiz va salomatlikni birinchi o'ringa qo'ygan infratuzilma maksimal samaradorlik uchun asos yarata oladi. Oliy ta'lim muassasalari uchun sport infratuzilmasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri – o'qituvchi, murabbiy va trenerlar uchun zarur mehnat va metodik sharoitdir. Ularning faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish uchun maxsus metodik, nazariy va amaliy xonalar, zamonaviy ko'rgazmali vositalar, darsliklar, trening va o'quv dasturlari, ma'lumotlar bazasi, sport natijalari va ilmiy-uslubiy ma'lumotlar ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur infratuzilmaga aylanishi zarur. Bunday metodik va



ma'muriy infratuzilma sport tadbirlarini to'g'ri rejalashtirish, ilmiy asosda tahlil qilish, natijalarni monitoring qilish va ilmiy takomillashuv yo'lida qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Jamoaviy hamkorlik va bilim almashinuvi sport infratuzilmasining yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu orqali sportchilar ustozlargina emas, balki o'zaro do'stona raqobat, innovatsion yondashuvlar orqali doimiy o'sib boradigan sog'lom muhit shakllanadi [6].

XULOSA

OTMlarda sport o'yinlarini tashkil etish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish – bugungi kun talabiga to'liq javob beradi. Mazkur yondashuvlar orqali nafaqat sog'lom raqobat, balki yuksak jamoaviylik, liderlik fazilatlari hamda zamonaviy dunyoqarash shakllanadi. Kelgusida ushbu ishlarni yanada rivojlantirish, yangi texnologiyalar va ilg'or tajribalarni qo'llash oliy ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, har bir OTMda sport o'yinlariga zamonaviy, innovatsion va tizimli yondashuvni keng ommalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shunda yoshlar sog'lom, mustaqil fikrli va barkamol insonlar sifatida voyaga yetadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, D. (2018). "Oliy ta'lim muassasalarida sport tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari". Zamonaviy ta'lim.
2. Aminov, N. (2022). "Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport o'yinlarining o'rni". O'zbekiston Sport ilmiy-amaliy jurnali, 2(4), 52-59.
3. Boboyev, H. (2019). "Zamonaviy sport turlarini o'rgatishda innovatsion yondashuvlar". Jismoniy tarbiya va sport, 1(2), 34-39.
4. Ergashev, T. (2017). "Oliy ta'lim muassasalarida sport o'yinlarini tashkil etishning pedagogik asoslari". Ilmiy axborotlar.
5. Islomova, G. (2021). "Sport o'yinlari orqali talaba yoshlarning faolligini oshirish". Ilm va Taraqqiyot, 6(3), 48-56.